

DUNYOGA YUZ OCHGAN INTERNET



Ilm-fanning eng ajoyib yutuqlaridan biri internetdir. Bugungi kunda dunyoni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Internet orqali juda qisqa muddatda kerakli ma'lumotlarni topish, yangiliklardan xabardor bo'lish, dunyoning istalgan nuqtasidagi odam bilan bog'lanish, sanoqli soniyalar ichida xat yuborish yoki qabul qilish, hatto istalgan mahsulotlarni do'konlardan xarid qilish mumkin.



1. Siz internetdan nima maqsadda foydalanasiz?
2. Internet o'qishingizda qanday yordam beradi?
3. Internetga ulana oladigan qanday qurilmalarni bilasiz?



Internet – bilim olishda ko'makchimiz

Matematikadan nazorat ishiga ikki hafta qolganda Anvar gripp bo'lib qoldi. Onasi o'qituvchiga telefon qildi va bu haqida ogohlantirdi.

– Tezroq tuzalib ketsin, – dedi o'qituvchi. – Anvar yaxshi bo'lib qolsa, darslarini o'zlashtirishga yordam berib yuboramiz.

Uch kundan keyin Anvar ancha yaxshi bo'lib qoldi. U o'rtoqlariga telefon qilib, darsda qaysi mavzular o'tilganini so'radi. Sinfdoshlari uning telefoniga

yangi mavzularni yuborishdi. Ustozi ham telefon qilib, nazorat ishida tushadigan mavzuni tushuntirib berdi.

Anvar o'rtoqlari yuborgan mavzularni mustaqil o'rganib chiqdi va internetdan qo'shimcha ma'lumotlarni qidirdi. Tushunmagan joylarini ustoziga yoki sinfdoshlariga qo'ng'iroq qilib, ulardan so'radi.

Anvar sog'ayib, maktabga kelganida, o'tkazib yuborgan mavzularini yaxshi bilardi.

– Barakalla, – dedi ustoz Anvarga. – Darsni mustaqil o'rganishni, kerakli ma'lumotlarni izlab topishni hamma bilishi kerak.

– Darsni qanday o'zlashtirish kerakligini endi tushundim, ustoz, – dedi Anvar. – Faqat eshitib, takrorlash bilan ish bitmas ekan. Tushunmagan joylarimni bilib olish uchun o'zim ham harakat qilishim kerak ekan. Internet – juda ulkan kutubxona, undan xohlagan mavzuga tegishli ma'lumotni topish mumkin.



1. Anvar vaziyatdan qanday chiqdi?
2. Internet bo'lmasa, Anvar shuncha ma'lumotni topa olarmidi?



Qidiruv saytlari, veb-brauzerlar ba'zi ma'lumotlarni topish kerak bo'lganda qulay vosita hisoblanadi. Internet sizga haqiqiy yordamchi bo'lishini istasangiz, ishonchli ma'lumotni qanday izlashni, faktlarni tekshirishni va ma'lumot manbalariga e'tiborli bo'lishni o'rganishingiz kerak.



Tasavvur qiling, internet yo'q bo'lib qoldi. Bunga nima sabab bo'lishi mumkin? Internet bo'lmasa, sizga muammo bo'ladimi yoki boshqa ishlar uchun ko'proq vaqtingiz bo'sh qoladimi? Javoblaringizni hikoya tarzida yozing.



O'zganing she'ri

Davron va Sardor ertalab maktabning oldida uchrashib qoldilar.

– Kechasi bilan uqlamay, she'r yozib chiqdim, – dedi Sardor.

– Men esa yozishga harakat qildim, biroq uddalay olmadim. Shu sababli internetdan ko'chirib qo'ya qoldim.

Bolalar maktabga kelib, darsda she'rlarini topshirishdi.

Ko'p o'tmay, o'qituvchi barcha she'rlar tanlovga yuborilganini aytdi. Tanlovga berilgan she'rlarning ko'chirilgan yoki ko'chirilmagani tekshirilarkan. O'qituvchi agar she'r internetdan ko'chirib olingan bo'lsa, juda xunuk ish bo'lishini aytdi.

Sardor Davronga she'rni ko'chirib olganini ustozga aytishini maslahat berdi. Biroq Davron ikkilanib qoldi...



1. Davron qanday yo'l tutishi kerak?
2. Internetdan boshqalarning asarlarini ko'chirib olish mumkinmi?
3. Davronning o'rnida bo'lib qolsangiz, nima qilar edingiz?



Internetda bir daqiqada:

- **Facebookda 150 000 ta xabar yuboriladi;**
- **Youtubeda 4 mln lavha ko'riladi;**
- **Twitterda 457 000 ta xabar yoziladi;**
- **Google saytiga 3 yarim mln marta murojaat bo'ladi.**



Internet juda katta imkoniyatlarni ochib berdi. U bugungi odamlar uchun hayotning ajralmas qismiga aylandi. Internet o'qishda, ishda katta yordam beryapti, boshqa yurtlarda yashaydigan qarindoshlar, yaqinlar internet orqali ko'rishib, gaplashib turibdi.

Lekin internetning salbiy tomonlari ham bor. Siz nima deb o'ylaysiz, ular qaysilar?

Qara, jonivorlar haqida zo'r sayt topib oldim!



Qoyil! Ammo bu sayt ro'yxatdan o'tishni talab qiladi.



1. Internetdagi bir saytda ro'yxatdan o'tishingiz zarur. Buning uchun nima qilish kerak?
2. "Shaxsiy ma'lumotlar" deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday ma'lumotlar shaxsiy ma'lumotlar deyiladi?
4. Shaxsiy ma'lumotlarni o'ylamasdan tarqataverish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?



Sinfdoshlaringiz bilan muhokama qilib, "Xavfsiz internet" mavzusida tavsiyalar ro'yxatini tuzing.

